

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 8 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i>	
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҲА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i>	
ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i>	
ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ҮҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ilxomidin</i>	
“O’ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O’ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo’mnov Aziz</i>	
О’ZBEKİSTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i>	
VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO’YICHA TARG’IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoira Rasulovna</i>	
PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i>	
МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To’xtabek Jumaboyevich</i>	
KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allamberganovich</i>	
TASHQI SAVDO SALOHIYATINING MINTAQА IQTISODIYOTIDA TUTGAN O’RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuzा</i>	
SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO’NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT QO’YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

Donayev Sheroli Burxonovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI 94-101

Kaxarov Jasur Abulkosimovich

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 102-109

Rahmonov Shukhrat Shavkatovich

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

110-117

Sherov Alisher Bakberganovich

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI 118-129

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIY-

AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI 130-135

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 136-145

Aripova Zulfiyaxon Salijanovna

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI 146-151

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI 152-156

Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK

VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI 157-162

Шоназаров Жамшид Шухратович

ЖАДИДЛАР ФОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ 163-168

Xo'janova Tamara Jo'raevna

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI 169-174

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH 175-179

Muxtorova Tutixon

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI 180-186

Rahmonova Mavluda Abdusamadovna

ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI 187-194

Pirnazarov Nurnazar

- TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING
FALSAFIY TAHЛИLI 195-201

Ismailov Dilshod Baxriddinovich

- DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI: KOMPARATIV YONDASHUV 202-209

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Yuldasheva Shaxnoza Azimboyevna

- RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI
TALQINI 210-216

Bozorbekov Ahmadbek

- O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI
TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI 217-230

Xamrayev Fozilbek Yo'lidoshevich

- ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA
MANBALARIDAN FOYDALANISH 231-236

O'tebaeva Dilbar

- TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR 237-242

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

- EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) 243-247

Kadirova Zaynab Bakoyevna

- INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 248-252

Allaberganova Nilufar Matnazar qizi

- QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI 253-256

Nabiyeva Rushana Jamol qizi

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY
GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA 257-262

To'rayeva Iroda Sheramatovna

- FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA
SPETSIFIKASI 263-268

Qodirova Munisa Erkinjon qizi

- BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) 269-272

G'aniyeva Nozanin G'ayratovna

- MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA
MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI 273-277

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

- TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHЛИLI 278-284

Eshniyazova Maysara Beknazarovna

- ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY
IFODA MUKAMMALLIGI 285-292

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna

- O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI 293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna</i>	
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH	
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI	299-306
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i>	
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА	
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ХУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ	307-325
<i>Пулатова Нодирахон Собиржоновна</i>	
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ	
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА	326-332
<i>Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich</i>	
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI	
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	333-341
<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В	
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ	342-345
<i>Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li</i>	
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI	346-356
<i>Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li</i>	
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI	357-368
<i>Утапов Фурқат</i>	
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ХУҚУҚИЙ	
МАҚОМИ	369-374
<i>Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li</i>	
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH	
TENDENSIYASI	375-381
<i>Назарова Марҳабо</i>	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В	
УЗБЕКИСТАНЕ	382-386
<i>Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич</i>	
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ	
МАСАЛАЛАРИ	387-400
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i>	
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ.....	401-406
<i>Abdikhakimov Islombok</i>	
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A	
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS	407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna</i>	
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK	
YONDASHUVLARNING ROLI	413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i>	
BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i>	
HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i>	
NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i>	
O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Таушулатович, Якубова Азада Ботировна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i>	
O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALТИRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHЛИLI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i>	
YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'llARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i>	
SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i>	
MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH	462-467

09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 30 July 2024

Accepted: 5 August 2024

Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

ENLIGHTENMENT IDEAS OF MAHMUDKHODJI BEHBUDI AND THEIR CONSTRUCTIVE ESSENCE IN SOCIAL AND ETHICAL RELATIONS

Tagayeva Dilnavoz Narzikulovna

Lecturer of Bukhara State Pedagogical Institute

tag-oyeva-dilnavoz@buxdpi.uz

Abstract. This article philosophically analyzes the ideas of enlightenment of Mahmudkhodji Behbudi and their constructive essence in the socio-moral relations within family and society. Special attention is given to his works "Hifzi Sihat Oila" and "Family" by Fitrat. Additionally, the article examines important aspects related to family and its issues in contemporary society.

Key words: development, enlightenment, human, family, society, upbringing, education, science, science, technology

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIY-AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

Buxoro davlar Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifikatparvarlik g'oyalari hamda ularning oilada, jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlardagi konstruktiv mohiyati falsafiy tahlil qilingan. Masalani yortib berishda Fitratning "Hifzi sihati oila" va "Oila" asarlariga diqqat qaratilgan. Shuningdek, maqolada oila va uning jadidlar davridagi muammolari haqida muhum ma'lumotlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, ma'rifikat, inson, oila, jamiyat, tarbiya, ta'lim, ilm, fan, texnika

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N18>

Kirish. Bugungi zamon taraqqiyoti talabi asosida dunyo ilm-fanining turli sohalarida buyuk allomalarining durdona merosini o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy mazmundagi ko'plab fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ma'rifikatparvar allomalar tomonidan yozib qoldirilgan boy ma'naviy merosida inson, oila, jamiyat, turmush tarzining mohiyati, ular falsafiy qarashlarida nikoh va oila konsepsiyasining ijtimoiy hayotdagi o'rni, oila va barkamol avlod tarbiyasi haqidagi ta'lilotning falsafiy tahlili va ijtimoiy-falsafiy masalalari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim konstruktiv ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida ijtimoiy – ma'rifiy, axloqiy va siyosiy qarashlarning yirik

namoyondalaridan bo'lgan mutafakkirlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir. "Behbudiy hazratlari ko'rinishida g'oyat mahobatli va salobatli edi. Ahvolig'a voqif bo'limg'on kimsa, mutakabbir deb guman qilur edi. Lekin, haqiqatda muloyim suhbatlik, takallufsiz bir odam edi. O'z moli haqida bo'lsin, xalq moli haqida bo'lsin, iqtisodg'a rioya qilar va ijtimoiy ahvolimizning tuzulishi uchun iqtisodg'a rioya qilishni birinchi shartlardan bilar edi. Shuning uchun to'y va a'zalarga bo'laturg'on isroflarni o'zi butun tark qilg'on va so'ziga quloq solaturg'onlarni ham tark qildirg'on edi"[1.1].

Mahmudxo'ja Behbudiy 1874 yil 10-martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida dindor oilada tavallud topdi. Yoshligida diniy va dunyoviy ilmlarni otasi va Chashmaob bo'lisida qozi bo'lib ishlaydigan tog'asi Muhammad Siddiqdan oldi. Uning ota – bobolari ilmli kishilar bo'lib, arab tilini puxta egallagan edilar. Maxmudxo'janing otasi Behbudxo'ja (asli Sultonxo'ja) 1893-yilda vafot etgach oilani boqish uning zimmasiga tushadi. U ishni tog'asi ishlayotgan bo'lisda mirzolikdan boshladi. Maxmudxo'ja meros taqsimlash, fuqarolik, oila tarbiyasi masalalarini hal etish, huquqshunoslik sohasida ham o'zini ko'rsatib muftilik darajasiga ko'tariladi.U diniy va zamonaviy ilmlarni puxta egallab, xalqning e'tiboriga tushadi. Behbudiy umrining oxirigacha diniy ta'lim va tarbiyani zamonaviy tarbiya bilan qo'shib olib borishga harakat qildi va shunga erishdi.

Behbudiy 1899-yilda Buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan dunyo safariga chiqadi. Bundan maqsad birinchidan, haj etib musulmonchilikni ado etsa, ikkinchidan, taraqqiy etgan musulmon mamlakatlarning o'qitish usullari bilan tanishish, uni o'rganish niyatida edi. U o'z safarlarida Misr, Turkiya va boshqa taraqqiy etgan joylarda bo'ldi. Behbudiy bu mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini, maorifini, xalqlarning ijtimoiy taraqqiy yo'llarini o'rgandi. Bu safar uning hayotida katta o'zgarishlar yasadi. U safardan qaytgach, rivojlangan mamlakatlardan kirib kelayotgan matbuotlarni o'qiy boshladi. Jumladan, 1883-yildan Ismoil Gaspirali tomonidan Qirimda nashr etilayotgan "Tarjimon" gazetasini uzluksiz kuzatib bordi.Behbudiyning usuli jadida maktabi tashkil etilganidanoq ikki tomonlama qarshilikka duch keldi. Birinchidan, chor hukumati usuli jadida maktablarining ko'paymasligi uchun kurashsa, ikkinchidan mahalliy mutassib dindorlar ham bu yangi usuldagagi maktablarni rivoj topmasliklari uchun harakat boshladilar. Chor hukumati xabarnomasi – "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida usuli jadid maktablariga qarshi fikrlar tez-tez ko'rinish turardi: "Usuli jadid degan qayerdan chiqdi. Bu nechuk. Masalan ota – bobolarimiz usuli qadim ila o'qub mullo bo'lg'onlar. Va biz usuli qadim ila o'qub bir nima bilib edik. Usuli jadid degan bir tariq bid'atdurki, yaqin fursatda chiqmishdur".

Dunyoviy taraqqiyotni anglab yetgan Behbudiylar Turkistonda ham yangilikni keng joriy etish, yangi maktablar tashkil etish, xalqning o'zligini anglashi uchun haraktlarni olib borib, dastlab o'lka xalqini savodli qilish kerak degan xulosaga keldi. U o'lkada birinchilardan bo'lib, 1904-yilda usuli jadid maktabini tashkil qildi. Yangi usuldagagi maktablar uchun quyidagi darsliklarni yozdi: "Madxali jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"(1905), "Muxtasari jug'rofiyai umumiy" "Qisqacha umumiy geografiya") (1906), "Kitobat - ul atfol" ("Bolalar uchun ish yuritish kitobi") (1908), "Muxtasari jug'rofiyai rusiy"("Rossiyaning qisqacha gografiyasi", "Islom amaliyoti" (1908), "Hisob" (1908), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi") (1909) va boshqa shu kabilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning oila va axloq tarbiyasi xususidagi "Oyina" jurnalida 1914-yilda chop etilgan, "Hifzi sihati oila" (Oila sog'ligining himoyasi), "Xotin olmoqni kerakligi",

“Bulug‘i tibbiy”, “Qiz bolalarni tarbiyasi”, “Uylanmaslikni zarari” kabi maqolalarida o‘z davrining ijtimoiy, axloqiy masalalari bayon etilgan[2.163]. Jamiyat taraqqiyotini ilmli yoshlarda ko‘rgan Behbudiy ma'rifatning ilk targ‘ibotchisi ota-onas, tarbiyachi maskan oila ekanligini o‘z davrida anglagan jadidlardan bo‘lib, oila sihat-salomatligiga e'tibor bermasdan xalqni farovon hayotga etishishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Inson tan salomatligi bilan teran fikrlay oladi. Inson sog‘lom bo‘lmasa diniy va dunyoviy ishlarga qodir bo‘lmaydi. Kasalmand kishi namoz, ro‘za, haj, va barcha diniy, dunyoviy ishlarni qilolmay, oxiri xorlik bilan, kasallik engib, dunyo tashvishlari ko‘ziga ko‘rinmay qoladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida inson salomatligining muhimligi haqida, “Din va dunyo ishi faqat sihhati badan ila bo‘lur[3.191]”-deya ta'kidlaydi.

Kasalmand yoki salomatligida muammosi bor xasta kishining kuchi bir pashshachivinga yetmaydi, ya’ni o‘z chivinini quvishga ham kuchi yetmaydi. Inson salomatligiga har tomonlama e'tibor berishi, sog‘lig‘i haqida doimiy qayg‘urishi lozim. Salomatlik sirini bilish uchun ham tibbiyot ilmidan boxabar bo‘lishi lozim. Mahmudxo‘ja Behbudiy dunyoning birinchi zaruriy ilmi badan va hifzu sihat ekanligini ta'kidlaydi. Inson sog‘ligi haqida o‘zi qayg‘urmas ekan undan, uning umri va hayoti xavf ostida qoladi. Inson yaxshi yashashi, yaxshi eyishi, ilm olishi uchun ham avvalo tan salomat, ruh sog‘lom bo‘lishi lozim. Bu haqda Muhammad (s.a.v.) aytdilarki : “Ilm ikkidir: biri badanlarni ilmi, digari ilmi din[3.191]”. Behbudiy mazkur davr kishilarini, tib ilmini bilmagani uchun ham o‘zini har kuylargacha soladi va bu yo‘lda ko‘p dard chekadi, o‘z qo‘li bilan o‘zini tahlikaga soladi deb, ta'kidlaydi. Tibbiyot ilmiga qiziqmay, turli domla, eshon, mullazodalarga borib engil kasalini davosiz dardga aylantiradi. Xasta bo‘lib, to’shakka mixlanib qolgandan so‘ng tib ilmidan xabardor insonga yuguradi, bungacha esa qilmagan ilmu amali qolmasligini o‘z davrining nodonligi deb, ta'kidlaydi. Bu bilan Behbudiy oilada badan va ruh salomatligiga e'tibor qaratish lozimligini uqtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada oila taraqqiyoti haqidagi ta’limotlar va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Demak, Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat salomat bo‘lishi uchun avvalo insonlar, yoshlar sog‘lom ulg‘ayishi uchun oila salomat bo‘lishi muhimdir. Sog‘lom oilada, sog‘lom farzandlar har tomonlama etuk kamol topadilar, degan g‘oyani ilgari suradi.

Ilm va tarbiyasiz yoshlar shariat, din va axloq buyurgan amallarni tark etib, turli man etilgan amallarni bajarib, taqiqlangan illatlarga duchor bo‘lib davosiz kasalliklarni ortirib, oilalariga zarar etkazadilar. Bunday nodon, noplak yoshlarga din va tibbiyot og‘ir xastaliklar orqali jazo beradi.

Inson xastalikka chalinmasligi uchun oilada to‘g‘ri tibbiy tarbiyani ota-onasidan o‘rganishi lozim. Vaqtida ovqatlanish, tozalikka rioya etish, kiyim-boshchlarni saranjom-sarishta tutish, xonodon tozaligiga e'tiborli bo‘lish kabilarni farzand oilada o‘rganishi lozim. Behbudiy “Bulug‘i tibbiy” maqolasida, yoshlarga bolaligidanoq nimalarni o‘rgatish lozimligi haqida fikr yuritadi. Bolalar yoshligidanoq badan ilmidan xabardor bo‘lsinlar. Ota-onalar farzandlariga ularda kechadigan jarayonlar haqidao‘z vaqtida to‘g‘ri tushuntirish olib borishlari kerak. Aks holda bolalar ko‘chadan eshitib xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Behbudiy o‘smyrlilik yoshida o‘g‘il-qizlarda uchraydigan balog‘at o‘zgarishlari haqida batafsil to‘xtalib, yoshlarga dastlabki badan ilmini to‘g‘ri berishligi haqida ota-onalarga tavsiyalar

beradi. Behbudiy o'g'il va qiz bolalarga "Balog'at hangomig'a hosil bo'lgan yangi alomatlar, bu bolig' qiz va o'g'il bolarni yaqosidan tutib tabiiy fikr va amallar tarafiga moyil qilar. Bechoralar o'zlarini shoshurtirib fikr qilmoqqa boshlaydur.Qaysi dardu orzug'a yo'liqganlarini bilmaslar"¹¹⁶. Tibbiyot ilmidan xabardor ota-onalar bu hollarni bilib, farzandlariga yoshligidan badan ilmini, yosh xususiyatlari bilan aloqador o'zgarishlardan o'z vaqtida xabardor etib, bu holatda qanday yo'l tutish kerakligini o'rgatadilar. To'g'ri tarbiya olgan bolalar bu hodisalarni to'g'ri tushunib, ortiqcha his tuyg'uga berilmay, xotirjamlik bilan, bu jarayondan vazmin o'tadilar. Ammo, balog'at tibbiy ilmidan xabarsiz qolgan bolalar bu jarayonda turli zararli illatlarni o'zlariga sherik qilishlari mumkin.

Demak, balog'at yoshidagi farzandlarga, to'g'ri tarbiya berish, ularni turli jinsiy, shahvoniy kasallik va illatlarga berilishining oldini oladi. Shuning uchun ham oilada ota-ona o'smir farzandlari bilan balog'at davrida do'st bo'lmog'i lozim.

Yangi tug'ilgan bolaning ko'zlarini lampa yoki quyosh nuriga, bir necha kun qaray olmaydi. Go'dak birdaniga yugurib ketmaydi, chiroyli so'zlay olmaydi. Tana a'zolari o'sib, kamol topib ketgunicha sabr va badan ilmi kerak. Agar inson din va diyonat amallaridan voqif bo'lsa, poklikka rioya qilsa, har bir ishni taorat bilan boshlasa umri va sog'lig'iga foyda bo'ladi.

Inson salomatligi taom va taomlanish qoidalariga amal qilish bilan mustahkamlanadi. Semirib ketmaslik uchun din amallarini qazosiz bajarish, ko'p yurish, doimo taoratda yurish, reja va tadbir bilan yurish, taom eganda oz-ozdan emoq, so'zlaganda shoshilmasdan gapirmoq lozim. Imkon qadar sho'r, tuzli, shirin, qandli, un va unli mahsulotlarni kam iste'mol qilish inson salomatligi uchun foydali.

Demak, oila a'zolari salomat bo'lsa, shu oila a'zolarining kayfiyati ham chog', oila esa baxtli bo'ladi.Oilaning salomatligi har jihatdan er- xotinning tib ilmidan xabardor bo'lishi, oilaning foydasi, farzandlarining sog'lom kamol topishi uchun xizmat qiladi. Sog'lom bolaning tafakkuri ham, aqli ham teran, chuqur mulohazali bo'ladi. Jismonan sog'lom, aqlan etuk yoshlar yurt ravnaqiga munosib hissa qo'sha oladilar.Behbudiy maktab ta'limi uchun ko'plab kitoblar yozgan jadid namoyondalaridan biridir.

Behbudiy usuli jadida maktabining tahsil usuli foydali va hayotiy fanlar asosida tuzilgan. Bu usuli jadida maktabida o'z tarixini yaxshi bilishga, o'z diniga e'tiqodli bo'lishga, o'z vataniga komil hamda sadoqatli farzand bo'lib etishishga chin dildan harakat qilingan. Behbudiy yozgan edi: "*Bizning murodimiz, natija va mahsulini ko'rmoq .kim islohga g'ayrat qilsa savobdur*"[4.4].

Behbudiy Turkiston o'lka farzandlarini ilmli qilish birinchi masala deb bildi. U ustoz va shogirdlikka ham juda katta e'tibor qaratdi. Ma'rifatparvar inson qobiliyatli bolalarni hatto o'z hisobidan taraqqiy etgan Turkiya, Misr kabi mamlakatlarga borib tahsil olishlariga sharoit yaratib berdi. Behbudiydan otalarcha g'amxo'rlik ko'rgan shogirdlaridan biri Abdusalom Azimi Turkiya safari oldidan Behbudiyning aytganlarini xotirlab yozgan edi: "*Siz mening ko'rsatganlarimdek Istambuldagи Boyazid talabalar jamiyatiga boringiz. Mening va Gasprinskiy afandining salom va maktubini u erga etkazingiz. So'ngra jamiyat sizga xizmat o'rnini ko'rsatar va xizmatdan forig' bo'lganingizdan keyin sizga Misr tahsilini ta'rif etib va har bir jihatdan yordam va maslahatlar berar deya menga o'z liboslaridan safar liboslarini tayyorlab Istanbul va yoxud Misrga borib manzil yuborgaimdan keyin doimiy ravishda tahsil masorifi(mablag' N.A) yuborib turishini va'da berib, Bog'chasaroy, Sevastopol va Istanbulga tavsiya qog'ozlari berib kuzatdi*"[5.5].

“Kitobat ul atfol” (Bolalar uchun ish yuritish) kitobida usuli jadida maktabi uchun odobnama, ish yuritish qoidalari, til o'qitish uslublari o'z aksini topgan. Unda hujjat yuritish qoidalaring odobi; ota

– onaning bolalarga munosabati; bolaning ota – onaga munosabati; farzandning do'stiga munosabati; farzandlarning tarbiyasi; farzandlarning majburiyatlari; farzandlarning ota – ona oldidagi burchlari; ularning huquqlari; xat yozganda axloq normalariga amal qilish qoidalari va shartlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Muallif kitobni nashr etishdan maqsadini: “*avlod i vatan uchun rasmiy va xususiy hamda Turkistonning shar'iy va milliy mahkamalarina ma'mul barcha vasoyiq, hujjat va biljumla musulmon volostnoy upraviteli (nohiya mudiri) huzurindabo'laturgan doznoniya, protokul, qabohatnoma va rasmiy har nav maktublarnimuhaviy bir necha juzdan murakkab bir asar tahrir etmoq amalinda edi[6.2]*” deb aytib o'tadi.

Behbudiy o'lkada jadidlar harakatining etakchi vakili sifatida kitobda o'qitish uslublariga yangicha yondoshadi. U savodsizlik, johillik, qoloqlik, madaniyatsizlik, huquqbuzarlikka qarshi keskin kurash olib bordi. Behbudiy ma'rifikatparvarlikni targ'ib etish, bolalar savodli bo'lishini o'ylash, ularning tarbiyasi bilan keng shug'ullanish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu kitobda:

- bolalarning yozma axloq – odobi tarbiyasini kamolatga erishuvini ta'minlash;
- farzandning tarbiyasi orqali o'z huquqlarining buzulmasligiga erishish;
- ish yuritishda til qoidalariqaqt'iy amal qilish;
- har kim o'zi tushunmaydigan, anglamaydigan, insonning tarbiyasini buzadigan, huquqini paymol etadigan, nafsoniyatiga tegadigan yomon sifatlarni birovga qo'llamaslik;
- inson xafa, kayfiyati tushgan, behushlik paytlarda birovga yoziladigan xatlar va hujjatlarni yozmaslik;
- farzandni oilada ota-onaga, do'stiga hamda qarindosh-urug'lariga yozma murojaatlarida o'z huquqini anglagan, tarbiyalı, sharqona qonun – qoidalaga rioya etgan holda tarbiyalash;
- ota – ona ham farzand tarbiyasida o'z huquqlarini anglatgan holda ish olib borish;
- bolalarni inson erkinliklari va huquqlari tamoyillari asosida komil inson qilib voyaga yetkazish masalalariga keng o'rinn Bergan.

“Kitobat ul atfol” (Bolalar uchun ish yuritish) kitobi ayni paytda darslik sifatida foydalanilgan. Unda tarbiya usullarini mujassamlashtiruvchi matnlar, xatlar yozishning tarbiyaviy ko'rinishlari, ota, ona, do'st, aka, ukaga va qarindoshlarga murojatlarning tipik ko'rinishlaridan misollar beriladiki, ular bolalarni tarbiyalashda juda qo'l keladi.

Xulosa va takliflar. Behbudiy o'z asarlarida milliy taraqqiyotning asosi hisoblangan oila instituning takomili, oilalar mustahkamligining iqtisodiy omillari, jamiyatda oila ma'naviy-axloqiy poklanishida dinning o'rni, fan va texnika yutuqlarini egallash uchun maorif tizimini qayta qurish lozimligi masalalarini yoritdi. Jamiyatning ma'naviy yuksalishi inson ijobiliy fazilatlarining boyishi oila bilan bog'liqligi masalasini tahlil qilib, oila va ma'rifikat uyg'unligini ta'minlash ijtimoiy hayotning boshqa unsurlariga pozitiv ta'sirga ega degan, xulosaga kelgdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. S.Ayniy. "Zarafshon" gazetasi, 1923 yil 25 mart.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi. IIjild." Akademnashr". 2018-B.163-207
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi. IIjild." Akademnashr". 2018-B.191.
4. Behbudiy M. Samarqand maktabi haqinda. "Turkiston viloyatining gazeti", 1908 yil 30 yanvar.
5. Azimiy A. Behbudiy haqida xotira va taassurotlarim. "Zarafshon" gazetasi, 1923 yil 25 mart.
6. Behbudiy M. Kitobat ul atfol. – Samarqand.: Behbudiy nashryoti , 1914. –B. 2.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
8. Turdiyev, B. (2021). Behbudi's views on the spiritual renewal of society. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 5(5).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).